



## SUG'URTA BOZORIDAGI ZAMONAVIY MUNOSABATLAR

**Xolmatov Baxtiyor**

*FarDU moliya kafedrasini mudiri, dotsent*

**Zokirova Sayyoraxon Dilshod qizi**

*FarDU Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorining «Yo'l xaritasi»da ko'rsatilgan «Sug'urta sohasidagi asosiy tushunchalarni belgilash»ga doir sug'urta fondini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq atamalar, xalqaro sug'urta amaliyotida ishlatiladigan asosiy tushunchalar yoritib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Sug'urta tarifi, sug'urta mukofoti, sug'urta qiymati, sug'urta summasi, sug'urta to'lovi, franshiza, sug'urta obyektlari, sug'urta subyektlari, sug'urtalovchi, adjaster, annuitet, dispatcher, evropolis.*

Sug'urta — muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlardir. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan tartibda va muddatlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida to'lanadigan sug'urta uchun to'lov sug'urta mukofotini bildiradi. Sug'urta summasi esa muayyan summa bo'lib, sug'urtalovchi sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) sug'urta shartnomasi bo'yicha ushbu summa doirasida to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Har qanday biznesda bo'lgani singari bunda ham tavakkalchilik asosiy o'rin egallaydi. Sug'urta tavakkalchiligi taxmin qilinayotgan voqea bo'lib, ushbu voqea yuz bergan taqdirda sug'urta amalga oshiriladi. Sug'urta obyektini va sug'urta tavakkalchiligining xususiyatini hisobga olgan holda belgilanadigan, shuningdek sug'urta shartlariga muvofiq sug'urta summasi birligidan olinadigan sug'urta mukofoti stavkasi sug'urta tarifida o'z aksini topadi.

Sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta qildiruvchiga, sug'urtalangan shaxsga (naf oluvchiga) har bir sug'urtalangan shaxs uchun sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi sug'urta tovonini (sug'urta to'lovi) orqali amalga oshiriladi.

Sug'urta tashkiloti tomonidan bir yoki bir nechta sug'urta klasslari doirasida ishlab chiqilgan va taqdim etiladigan aniq sug'urta turlari amal qiladi.

Sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani va qayta sug'urtani amalga oshirishi bilan bog'liq sug'urta faoliyati mavjud. Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasini tuzish chog'ida taraflarning



kelishuvi bilan aniqlanadigan, sug'urtaga topshiriladigan mol-mulkning sug'urta qiymati yuritiladi.

Hozirgi kunda bu biznes tarkibuda franshizalar ham amal qilib, ular sug'urta qildiruvchi zararlarining bir qismidir, sug'urta shartnomasiga muvofiq uning o'zni sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydi.

Sug'urta tashkiloti tomonidan boshqa davlat hududida sug'urta shartnomalarini tuzish va bajarish bo'yicha faoliyatni ham amalga oshirish mumkin bo'lib, bu sug'urta transchegaraviy sug'urtadir. Jismoniy shaxslarning ma'lum bir yoshgacha yoki muddatgacha yashashi yoxud jismoniy shaxslarning hayotida boshqa voqealar yuz berishi, shuningdek ularning o'limi bilan bog'liq mulkiy manfaatlar yoki jismoniy shaxslarning sog'lig'iga zarar yetkazilishi, shuningdek baxtsiz hodisa yoki kasallik natijasida ularning o'limi bilan bog'liq mulkiy manfaatlar qayerda bo'lmasin, hayotni sug'urta qilish obyektlari bo'lishi mumkin. Sug'urta subyektlari esa sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridir. Bu bozorning professional ishtirokchilari sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurveyerlari, assistanslardir.

Risk ko'rinishlarining xilma-xilligi, uning sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlarining og'irligi, riskning ro'y berishi sababli paydo bo'lgan zararlarni mutloq tugatishning imkoniyati bo'lmaganligi sug'urta ishini tashkil etish uchun asos yaratdi. Shunday qilib, risk sug'urtaviy huquqiy munosabatlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Hozirda bu bozorda sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etishga doir faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar, ya'ni sug'urta brokerlari samarali faoliyat yuritmoqdalar. Shuningdek, sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lib sug'urta agentlari ham ishtirok etishlari mumkin.

Shu o'rinda adjasterlar haqida ham ma'lumot bermoqchimiz. Adjasterlar sug'urtalovchining, sug'urta qildiruvchining va boshqa buyurtmachining topshirig'i bo'yicha xizmat ko'rsatadigan, o'z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxslardir. Qolaversa, aktuar tashkilotlar ham faoliyat yuritishi mumkinki, ular quyidagilarni o'z ichiga oladilar:

- sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitoblarini amalga oshirish; ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug'urta majmui bo'yicha zarar yetkazilishining takroriylikni va uning oqibatlarining og'irlik darajasini belgilash;

- sug'urtalovchining investitsiyalar sifatida to'plangan badallardan foydalanishida kapital qo'yilma normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni tarif





stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga imkon beradigan tarzda aniqlash;

- sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilar kapitalining yetarlilik ko'rsatkichini hisoblash, shuningdek aktivlar sifatini ta'minlash mexanizmlarini belgilash va boshqalar.

Aktuariylar qonunchilikda belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxslardir.

Va yana sug'urta syurveyerlari ham borki, ular quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxslardir:

- sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta (qayta sug'urta) obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

- sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

- tekshirilayotgan sug'urta obyektini bo'yicha xulosa tuzish.

Assistanslar esa sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko'mak beruvchi jismoniy yoki yuridik shaxslardir.

Abandon – to'liq miqdordagi sug'urta summasini olish uchun sug'urtalanuvchining sug'urtalangan mol-mulkdan sug'urtalovchining foydasiga voz kechishi (sug'urtalangan kema nobud bo'lganda, u xabarsiz yo'qolganda, kema yoki yuk qaroqchilar tomonidan bosib olinganda). Abandon to'g'risidagi ariza voqea-hodisa ro'y bergandan keyin olti oy mobaynida berilishi kerak. Ayrim chet mamlakatlar qonunchiligida abandon sug'urtalanuvchining bir tomonlama akti hisoblanadi. Faqat Angliya qonunchiligida abandon uchun sug'urtalovchining roziligi talab etiladi.

Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararning xarakteri va miqdorini avariya komissari aniqlaydi, hodisa ro'y berganlik sabablarini o'rganadi. Avariya komissari sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarining chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va teleks raqamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta polisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta kompaniyasining topshirig'iga asosan, ko'rilgan zararni qisman qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikati tuzadi yoki unga yozma axborot tayyorlaydi. Avariya sertifikati – mol-mulk sug'urta hodisasi tufayli zararlanganda ko'rilgan zararning miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjatdir. Avariya sertifikati avariya komissari (adjaster) tomonidan tuziladi va tegishli vositachilik haqi hisobiga sug'urtalanuvchiga



taqdim etiladi. Avariya sertifikatini sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arizasiga ilova etiladi va qoplamaning to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega, sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs anderrayter bo'lib, ular sug'urta kompaniyasining sug'urta portfeli shakllanishi uchun javob beradi. Ular sug'urta shartnomalarini tuzish, risklarni baholash va sug'urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo'lishi zarur. Anderrayter siyosati sug'urtalash bilan bog'liq yangi takliflarni ko'rib chiqish va mazkur taklifni qabul qilish yoki rad etish to'g'risida xulosalar chiqarishga qaratilgan siyosatdir.

Hozirda annuitetni bilish ham muhim bo'lib, u renta va nafaqalarni sug'urtalashning hamma turlarini umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga bir vaqtning o'zida yoki bir necha yillar davomida tegishli sug'urta mukofotlarini to'laydi. Keyin sug'urtalanuvchi butun hayoti davomida sug'urta kompaniyasidan daromad oladi. Annuitetning bir turi hisoblanadigan fuqarolarning yillik daromadini sug'urtasi bugungi kunda Buyuk Britaniyada, Frantsiyada va AQShda keng rivojlangan.

Sug'urta bozorlarida dispasherlar, ya'ni dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassislar ham talab katta. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher funksiyasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun haqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi.

Va nihoyat kovernota haqida ham ma'lumot bermoqchimiz. U sug'urta vositachisi tomonidan sug'urtalanuvchiga beriladigan va sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasi tuzishini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, unda ko'rsatilgan muddat mobaynida sug'urta brokeri sug'urtalanuvchiga sug'urta polisini berishi shart. Chunki kovernota sug'urta kompaniyasi uchun yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanmaydi.

Hulosa qilib aytmoqchimizki, erkin bozor munosabatlari amal qilayotgan bizning mamlakatimizda ham bunday zamonaviy sug'urta munosabatlarini kengroq joriy etish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-4412-sonli qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining « Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi O'RQ-730-sonli qonuni [www.lex.uz](http://www.lex.uz)





3. Kholmatov, B. A. (2020). Development Of The Saving Factor In The Agriculture Of Uzbekistan. The American Journal of Management and Economics Innovations.

4. Холматов, Б. А., & Абдисаматов, Ш. А. (2019). Некоторые аспекты организации маркетинговой деятельности в субъектах малого бизнеса и частного предпринимательства. In Теория и практика корпоративного менеджмента.